

MEDIA AXLOQINING KONVERGENT JURNALISTIKADAGI O‘RNI VA DOLZARB MUAMMOLARI

Хилола Файзуллаева

ЎзЖОКУ, Инсон ҳуқуқлари ва медиа кафедраси катта ўқитувчиси

xilola08051982@gmail.com

ORCID iD: 0009-0005-8072-6454

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15688781>

Annotatsiya: Mazkur maqolada konvergent jurnalistika tushunchasining mohiyati, uning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy media muhitdagi o‘rni va ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, u media etikasi bilan qanday bog‘liqligi va O‘zbekistondagi tatbiqi hamda istiqbollari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: konvergent jurnalistika, media integratsiyasi, raqamli media, axborot texnologiyalari, jurnalist etikasi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari.

Axborot inqilobi dunyoni juda tez suratlarda o‘zgartirib, insoniyatga uning hayotiy faoliyati sohalarida yangi yechimlar va imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalari va hisoblash texnikasining jadal taraqqiyoti natijasida tashkil topgan axborot inqilobi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy – madaniy sohalardagi tub o‘zgarishlarning sababi bo‘lib bormoqda. Internet kabi global axborot tarmoqlarining yuzaga kelishi, an’anaviy iqtisodiyot modellari va biznesni jiddiy tarzda o‘zgartirmoqda, konvergensiya jarayoni texnologik, iqtisodiy va huquqiy chegaralarni yuvib yubormoqda. Tom ma’nodagi tarixiy ahamiyatga ega bo‘lmish mazkur jarayonlar o‘z navbatida OAVga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Bugun internet orqali har qanday foydalanuvchi osongina matnli, vizual va ovozli axborotni olishi mumkin. Bu nafaqat axborot uzatish vositasi, balki bu shunday muhitki, unda video matn davomiga aylanib, ovoz surat bilan bezaladi. Bu yerda OAVning multimedizatsiyalashi haqida gapirar ekanmiz, yana bir, ya’ni “konvergensiya” tushunchasini tilga olish joizdir. Bunda an’anaviy OAV o‘rtasidagi chegaralar yo‘qoldi va shu orqali jurnalistika, matbuot va OAV sohasida butkul yangi davr boshlandi. Hozirgi yangi axborot texnologiyalar davrida butun dunyoda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy jarayonlar tabiiy ravishda jahon va o‘zbek milliy jurnalistikasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Zamonaviy axborot tarqatishni, jumladan, jurnalistikani elektron ommaviy axborot vositalarisiz va internetsiz tasavvur etish qiyin.

“XXI asrning eng katta yutuqlari sifatida ommaviy axborot vositalarining globallashuvi, raqamli texnologiyalarga o‘tish va internet bilan birlashishni aytish mumkin. Tabiiyki, internetdek ulkan virtual kenglikdan ommaviy axborot vositalari

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ham birinchilardan bo‘lib foydalana boshladi. Shunday qilib onlayn jurnalistika vujudga keldi.¹”

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy jurnalistikani tubdan o‘zgartirib yubordi. An’anaviy OAV (radio, televideniye, gazeta) va internet-platformalar o‘rtasida media kontentni uzluksiz almashish holati paydo bo‘ldi. Bu jarayon jurnalistikada yangi bosqich — **konvergent jurnalistika** deb ataladigan yo‘nalishni shakllantirdi. Jurnalistika konvergentsiyasi sharoitida mamlakatimizda onlayn jurnalistikaning vujudga kelishi, shakllanishi va keng tarmoq otishi unda faoliyat yuritayotgan jurnalistlar faoliyatining funksiyalari, ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, mahorat qirralarini maxsus o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Chunki internet tarmog‘idagi ommaviy axborot vositalarining soni to‘xtovsiz ortib borib, ularda professional ravishda faoliyat yurita oladigan kadrlarga bo‘lgan talab kuchaymoqda. Mavjud onlayn jurnalistika tizimi faoliyatini atroflicha tahlil etish yo‘li bilan ularning professionallik darajasini aniqlash, internet ommaviy axborot vositalari jurnalistlarining kasbiy mahorati masalalarini o‘rganish hamda ilmiy-nazariy va amaliy tahlil etish hozirgi kunning dolzarb mavzulardan biridir.

Globalashuv turli maqsadlarni ko‘zlab, bir-birini takrorlamas vazifalarni o‘z ichiga olgan murakkab jarayon hisoblanadi. Jamiyatda biror soha yo‘qki uning ta’siridan chetda qolayotgan bo‘lsa. Mazkur jarayon qoldirayotgan natija ham ijobiy, ham salbiy bo‘lishi mumkin. Birgina axborot makoniga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi bu sohada ham jiddiy o‘zgarishlarga olib keldi. Bugun istaymizmi yoki yo‘qmi, globalashuv o‘z zamiriga butun rivojlanish jarayonlarini qamrab oldi. Yer sharining bir chekkasida sodir bo‘lgan voqea haqidagi axborot bir zumda uning boshqa chekkasiga yetib boradi. Bu tezkor, tabiiy jarayon. Undagi to‘g‘ri foydalanish, zarur axborotni keraksizidan, axborot oqimi ichidan foydali ma’lumotni ajrata bilish, uning ijobiy xususiyatlarini olib, takomillashtirib, milliy ma’naviyatimizga zid kelmaydigan tarzda taqdim qilish va kezi kelganda turli yot g‘oyalarga qarshi kurashish milliy jurnalistikamiz uchun dozarb masaladir. Ushbu jarayonda ommaviy axborot vositalarining konvergentsiyasi tezkorlik bilan amalga oshishi axborot qiymatining o‘zgarishiga olib keldi. Xo‘sh, jurnalistikada konvergentsiya nima o‘zi? U jurnalistika rivoji va sifatining o‘zgarishiga qay darajada ta’sir ko‘rsatadi?

«Konvergentsiya» lotin tilidagi «convergo» — «yaqinlashaman» so‘zidan olingan bo‘lib, ingliz tilida convergence sifatida talaffuz qilinadi va bir nuqtada jamlanish ma’nosini beradi. Rus olimasi M. Pavlikova kanadalik OAV

¹ Мўминов Ф.А “Хамроҳми ёки ҳамкор”, Интернет журналистика илмий мақолалар тўплами, -Т., 2005, 10-6.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

tadqiqotchisi Denisa Makkueylning fikrlariga tayangan holda uni quyidagicha ta'riflaydi: «Bu bir xil mazmunga ega bo'lgan mahsulotning turli xil kanallarda, turli vositalar yordamida tarqalishidir»². Keng ma'noda texnologiyalarning tez rivojlanishi va o'zaro aloqadorlikda ishlashi natijasida yagona tizimga birlashish, qo'shilish jarayonini anglatadi. Jamiyatning turli sohalarining konvergensiya jarayonini boshidan kechirishini chuqur tahlil etgan rossiyalik olim A. G. Kachkaeva konvergensiyaning quyidagicha tasniflashni tavsiya etadi:

- konvergensiya mediaxoldingning biznes strategiyasi sifatida;
- konvergensiya taktika sifatida;
- konvergensiya yangi qolipga ko'chish sifatida;
- konvergensiya axborotni yig'ish va tarqatishda yangi ko'rinish sifatida³.

Jurnalistikaning konvergensiya jarayoni 21-asr axborot makonida yuz berayotgan raqamli transformatsiya bilan chambarchas bog'liqdir. Konvergent jurnalistika — bu axborotni bir vaqtning o'zida bir necha platformalar orqali tarqatish, ya'ni matn, video, audio, infografika kabi turli formatlarni sintez qilishga asoslangan yangilangan ommaviy axborot vositasi faoliyatini anglatadi. Bu jarayon jurnalistning ko'p qirrali qobiliyatini talab etadi va u yangicha axloqiy muammolarni ham vujudga keltiradi. O'zbekiston mediamuhitida konvergent jurnalistika jadal rivojlanmoqda. Masalan, “Kun.uz”, “Daryo.uz”, “Gazeta.uz” kabi portallar bir vaqtning o'zida matn, video, rasm va infografika orqali kontent ishlab chiqmoqda. Ammo ayrim hollarda:

- shaxsiy hayotga oid kontentni ruxsatsiz e'lon qilish,
- faktni birinchi bo'lib chiqarish uchun ishonchsiz manbalarga suyanish,
- tahririyatsiz, “shaxsiy bloger” kontenti sifatida tarqatilgan axborotlar muammoga sabab bo'lmoqda.

Bu holatlar OAVda jurnalist kasb axloqini mustahkamlash, maxsus etika kodekslarini amaliyotga joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Konvergent jurnalistikaning rivojlanish bosqichlarida axborotning tezkorligi, auditoriya bilan interaktiv muloqot, kontentni qayta ishlash va tarqatishda erkinlik kabi omillar ustuvor bo'lgan. Biroq ushbu tendensiyalar jurnalistika etikasiga xos bo'lgan **xolislik, tasdiqlanganlik, sha'ni va qadr-qimmatga hurmat, axborot manbalari maxfiyligini saqlash, muvozanat va adolat** kabi asosiy tamoyillarga taassir etmoqda.

² Вартанова Е. Л. К чему ведет конвергенция в СМИ. М.: Аспект-Пресс, 1999; Павликова, М. Сетевые технологии и журналистика: Эволюция финских СМИ. М.: РИП — холдинг, 2001; Качкаева А. Г.

³ Журналистика и конвергенция: почему и как традиционные СМИ превращаются в мультимедийные / под ред. А.Г. Качкаевой. – М., 2010 г.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Masalan, internetga mo'ljallangan materiallar ko'pincha sensatsion, feyk va nazoratsiz ma'lumotlarga asoslanadi. Konvergent muhitda tezkorlik etikadan ustun kelishi, infografika, ilustrasiya yoki sharhlarning manipulyativ tarzda qo'llanilishi xolis axborot taqdimotini xavf ostiga qo'yadi. Shunday vaziyatlarda deontologik (burch asosida) yoki konsektivistik (oqibatga qarab baholanadigan) yondoshuvlar o'rtasida tanlov qilish jurnalist uchun axloqiy dilemmaga aylanadi.

O'zbekiston amaliyotida ham konvergent jurnalistika rivojlanib borayotgani holda, blogerlar va yangi ommaviy media shakllari orqali tarqatilayotgan axborotlar jurnalistik kasb me'yorlarini buzish holatlari bilan birga kelmoqda. Axborotning tahrirsiz, faktcheksiz tarqatilishi jamoatchilikda noto'g'ri qarashlar shakllanishiga olib kelmoqda. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi Qonuni, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni, shuningdek, Jurnalistlar etika kodeksidagi talablarga amal qilish media makonda mas'uliyatni ta'minlashning asosiy sharti sifatida qaraladi.

Konvergent jurnalistikaning texnik imkoniyatlari jurnalist axloqining qayta ko'rib chiqilishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayonda xolislik, mas'uliyat, shaffoflik va inson qadr-qimmatiga hurmat etik me'yorlar sifatida saqlanishi, raqamli muhitdagi barcha media xodimlari tomonidan amal qilinishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo'minov F.A “Hamrohmi yoki hamkor”, Internet jurnalistika ilmiy maqolalar to'plami, -T., 2005, 10-b.
2. Vartanova Ye. L. K chemu vedet konvergensiya v SMI. M.: Aspekt-Press, 1999; Pavlikova, M. Setevye tehnologii i jurnalistika: Evolyusiya finskix SMI. M.: RIP — xolding, 2001; Kachkaeva A. G.
3. Jurnalistika i konvergensiya: pochemu i kak traditsionnye SMI prevrashayutsya v multimediynye / pod red. A.G. Kachkaevoy. – M.:, 2010 g.